

## PEDAGOGIK KONSTRUKTIVIZM – O‘QUVCHILARNI MUSTAQIL FIKRLASHGA O‘RGATISH OMILI

*Abduraxmonova Nilufar Husniddin qizi*

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent*

*davlat ona tili va adabiyoti universiteti 3- bosqish talabasi*

**Annotatsiya:** Bugungi axborot asrida mustaqil fikrlash har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu maqolada o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatishda konstruktivizm pedagogikasidan foydalanishning ahamiyati xususida fikr yuritildi, pedagogik konstruktivizmning asosiy tamoyillari, uning o‘quvchilarning mustaqil fikrlashiga ta’siri va amaliyotdagi qo‘llanilishi tahlil qilinadi. Konstruktivizm – bu o‘quvchilarning bilimlarni o‘z tajribasi va faoliyati orqali shakllantirishiga asoslangan pedagogik yondashuvdir. Ushbu nazariya kognitiv psixologiya va ta’lim metodikasiga tayanib, bilimlarning tayyor shaklda berilishidan ko‘ra, ularni o‘zlashtirish jarayonining o‘zini muhim deb hisoblaydi.

**Kalit so‘zlar:** o‘qitish nazariyalari, konstruktivizm, mustaqil fikrlash, modellashtirish bosqichi, dialog bosqichi, amaliyot bosqichi, tasdiqlash bosqichi, feedback, muammoli ta’lim, jamoaviy ta’lim.

**Annotation:** In today's information age, independent thinking is more important than ever. This article discusses the importance of using constructivist pedagogy in teaching students to think independently, analyzes the main principles of pedagogical constructivism, its impact on students' independent thinking, and its application in practice. Constructivism is a pedagogical approach based on students' formation of knowledge through their own experience and activities. This theory, based on cognitive psychology and educational methodology, considers the process of acquiring knowledge to be more important than the provision of ready-made knowledge.

**Key words:** teaching theories, constructivism, independent thinking, modeling stage, dialogue stage, practice stage, validation stage, feedback, problem-based learning, team learning.

Zamonaviy ta'limda o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish muhim vazifalardan biridir. Pedagogik konstruktivizm ushbu maqsadga erishishda samarali yondashuv hisoblanadi. Bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan zamonda muvaffaqiyat qozonish uchun iqtidorning o'zi yetarli bo'lmay qoldi. Ya'ni bugungi davr mutaxassisdan qobiliyat va mehnatdan tashqari mustaqil, ijodiy va tanqidiy fikrlashni, masalaning mohiyatini chuqur va teran anglashni, vaziyatni xolisona baholash kabi bir qancha zaruriy ko'nikmalarni talab etmoqda. Shu boisdan ham uzluksiz ta'lim tizimida o'quvchilarning erkin va ijodiy fikrlashlarini shakllantirish hamda shu orqali ularni mustaqil fikrlovchi irodali insonlar, kelajakda o'z sohasining yetuk mutaxassisi etib tarbiyalash pedagog kadrlar oldida turgan muhim masalalardan biridir. Bu vazifani bajarishda o'zbek tili va adabiyot darslarining ham o'rni beqiyos. Ma'lumki, o'zbek tili va adabiyot darslarida mustaqil va ijodiy fikrlash, mulohaza yuritish uchun imkoniyat kengroq bo'ladi. O'quvchilar badiiy asar tahlili jarayonida mustaqil, tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirib boradilar. XX asrning birinchi yarmida Amerikada paydo bo'lgan hamda hozirda Yevropa o'qitish tizimida keng qo'llanayotgan konstruktivizm pedagogikasi o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishda muhim nazariyalardan biri bo'lib xizmat qilmoqda.

Konstruktivizm pedagogik falsafadir, uning asosiy g'oyasi shundaki, bilimlarni o'quvchiga tayyor shaklda yetkazish mumkin emas, har bir o'quvchi bilimlarni o'zi yaratadi. Konstruktiv o'qituvchining pedagogik faoliyati ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. U nafaqat o'qituvchi, balki maslahatchi, tashkilotchi va o'qituvchilarning muammoli, ilmiy-tadqiqot va kognitiv faoliyatining koordinatori bo'lib, o'quvchilarning mustaqil aqliy faoliyati uchun sharoit yaratadi va ularning tashabbuslarini har tomonlama qo'llab-quvvatlaydi. Darsga tayyorgarlik ko'rish va darsni rejalashtirish jarayonida konstruktivist o'qituvchi o'quvchilarning real

hayotidan misollarni qo'llashni afzal ko'radi, amaliy vaziyatlardan, asosiy manbalardan va original materiallardan ma'lumotlarni oladi. Konstruktivizm sun'iy materiallar bilan emas, balki original material bilan ishlashni maqsad qilib qo'yadi, shu bilan o'quvchilarni mustaqil o'rganishga, farazlarni shakllantirishga va qonunlarni kashf qilishga undaydi. O'quvchilar bir-birlariga murojaat qilishlari, boshqalarning fikrlarini va savollarini eshitishlari, o'z nuqtayi nazarlarini himoya qilishlari, sinfdoshlarning fikrlarini tinglashlari mumkin – boshqacha qilib aytganda, o'quvchi yangi bilimlarni o'qituvchining og'zidan tayyor holda olishi emas, uni ishlab chiqishda o'zi to'liq ishtirok etishi va bilimlarni o'zi kashf qilishi kerak. O'qituvchi o'quvchilarga nimani o'rganish kerakligini tushunishlariga yordam beradi. O'quvchilar yangi materialni tushunishda o'z tajribasiga tayanishi, o'rganilayotgan hodisani mavjud bilimlari bilan taqqoslashi, yangi materialning mazmuniga qarab, o'qituvchi ma'lumot berishidan oldin ma'lum tarzda o'z nazariyalarini ilgari surishlari kerak. Agar o'quvchi qoidani yodlamasdan, tushunib o'rgansa, har qanday vaziyatda hayoti davomida bu qoidalarni qo'llay oladi. Filologik ta'lim jarayonida o'quvchi qoidani faqat yodlash bilan cheklansa, mohiyatini tushunmasa, ularni amaliyotda qo'llay olmasligi mumkin. Natijada ko'nikma hosil qilinmaydi. O'quvchida mavzuga oid ko'nikmaning mavjudligi aktual rivojlanish zonasini tashkil etadi. Aktual rivojlanish zonasi bolaning o'zi bajara oladigan harakatlari va malakalaridir. Agar bola harakat va malakalarni mustaqil bajara olmasdan, kimningdir yordamiga tayansa, bu holat yaqin rivojlanish zonasi deb yuritiladi. O'qituvchi yaqin rivojlanish zonasini aktual rivojlanish zonasiga aylantirish uchun bir qadamgina oldinda turishi kerak, undan ko'p emas.<sup>1</sup> Rus psixologi L.S.Vigotskiyning fikriga ko'ra, yaqin rivojlanish zonasini aktual rivojlanish zonasiga aylantirish to'rt bosqichdan iborat:

1. Modellashtirish bosqichi – o'rganilayotgan obyektning aynan o'zini ko'rsatish.

<sup>1</sup> Vigotskiy L.S. «Thought and language», 1962.

2. Dialog bosqichi – o‘qituvchi tomonidan o‘quvchilarning mavjud bilimini tekshirish. O‘quvchilar o‘qituvchi tomonidan berilgan savollarga javob berishi asnosida o‘qituvchi va o‘quvchi dialogi yuzaga keladi. Vigotskiy bunday dialog shakli ta’limda samarali natijaga erishish imkonini berishini ta’kidlaydi.

3. Amaliyot bosqichi – o‘rganilgan bilimlarni amaliyotda qo‘llash. Ushbu bosqichda mavjud nazariy bilimlar amaliyot bilan bevosita bog‘lanadi.

4. Tasdiqlash bosqichi – Bunda feedback (qayta aloqa) jarayoni amalga oshiriladi. Feedback jarayoni natijaning yutuq va kamchiliklarini izohlash hamda sabablarini keltirishdir.

Vigotskiy: “Biz o‘rganishni “o‘rgatishimiz kerak”, – degan g‘oyani ilgari suradi. Shunga o‘xshash fikrni shvetsariyalik psixolog Piaje ham keltiradi: “Konstruktivist o‘qituvchi dars beruvchi o‘qituvchi emas, u ta’lim oluvchilarning muammoli yo‘naltirilgan faoliyatiga konsultant, tashkilotchi va muvofiqlashtiruvchi hisoblanadi. U o‘quvchilarning mustaqil aqliy faoliyati uchun sharoitlar yaratadi va ularni har tomonlama quvvatlaydi”.<sup>2</sup>

Pedagogik konstruktivizm quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

O‘quvchi faolligi – bilimni o‘quvchining o‘zi izlab topishi va anglab yetishi kerak.

Ilgari olingan bilimlarga tayanish – yangi bilimlar avvalgi bilimlar asosida shakllanadi.

Muammoli vaziyatlar yaratish – o‘quvchilarga mustaqil fikrlash va muammolarni hal qilish imkoniyati beriladi.

Interaktiv o‘qitish – ta’lim jarayonida muhokama, bahs-munozara, jamoaviy ishlash usullaridan foydalaniladi.

O‘quv jarayonini shaxsiylashtirish – har bir o‘quvchining individual xususiyatlari va ehtiyojlari inobatga olinadi.

Pedagogik konstruktivizmning mustaqil fikrlashga ta’siri:

<sup>2</sup> J.Piaje “Theory of cognitive development”; <http://www.simplypsychology.org/piaget.html>.

Konstruktivistik ta'lim muhitida o'quvchilar quyidagi ko'nikmalarga ega bo'ladilar:

1. Tanqidiy va analitik fikrlash;
2. Muammolarni mustaqil hal qilish;
3. O'z fikrini aniq ifodalash va himoya qilish;
4. Mustaqil axborot izlash va tahlil qilish;
5. Yangi bilimlarni hayotiy tajriba bilan bog'lash.

Masalan, an'anaviy darslarda o'qituvchi tayyor bilimlarni yetkazsa, konstruktivistik yondashuvda o'quvchilarga muammoli savollar beriladi, tajriba o'tkaziladi yoki guruhlarda ishlash orqali bilimlarni o'zlari kashf etishlariga sharoit yaratiladi.

Amerikalik faylasuf va pedagog John Dewey: "Ta'lim jarayoni faqat bilim berish emas, balki tajribaviy o'rganish orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishdan iboratdir"<sup>3</sup>. Hozirgi kunda konstruktivizm tamoyillarini maktab ta'limida turli usullar orqali tatbiq etish mumkin:

Loyiha metodidan foydalanish – o'quvchilar o'zlari mustaqil izlanish olib boradilar va loyihalar tayyorlaydilar.

Muammoli ta'lim – o'qituvchi dars davomida muammoli vaziyatlarni yuzaga keltirib, o'quvchilardan yechim topishni talab qiladi.

Rol o'yinlari va simulyatsiyalar – o'quvchilar hayotiy vaziyatlarni sahnalashtirib, tahlil qiladilar.

Jamoaviy ta'lim – o'quvchilar guruhlariga bo'lingan holda bilimlarni mustaqil o'rganadilar va baham ko'radilar.

Raqamli texnologiyalarni qo'llash – interaktiv ta'lim platformalari orqali o'quvchilarning mustaqil bilim olish imkoniyati kengaytiriladi.

Xulosa qilib aytganda, yoshlarda sog'lom, mustaqil dunyoqarash, erkin va tanqidiy fikrlashning qaror topishiga erishish ularning vayronkor g'oyalar obyektiga

<sup>3</sup> John Dewey <https://cyc-net.org/cyc-online/cyconline-apr2010-dewey.html>

aylanishining oldini olish hamda mafkuraviy immunitetning shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Bu nazariyaning zamonaviy ta'lim tizimi uchun dolzarb ekani, uning o'z-o'zini o'rganish va yangicha fikrlash uchun muhim asoslarga ega ekanligini ko'rsatadi. Konstruktivizm ta'lim jarayonida chuqur va barqaror o'zgarishlar kiritishi mumkinligi sababli, uni ta'lim dasturlariga integratsiya keraklidir. Shu boisdan ham ta'lim jarayonida o'quvchilarning o'z chegaralaridan tashqarida fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish uchun jahon tajribalarini o'rganib, afzalliklarini milliy metodikamizga tatbiq etish o'qitish tizimini yangilashga bevosita hissa qo'shadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Shernazarova R.H. Ona tili va adabiyot ta'limida pedagogik texnologiyalar. Guliston, 2013.
2. Adabiyot o'qitish metodikasi. To'xliyev B. Toshkent, 2011.
3. Bruner J. "The act of discovery", 1961.
4. Vigotskiy L.S. "Thought and language", 1962.